

HUQUQIY DAVLATNING BARPO ETILISHI INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY SHARTI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o'g'li

«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» MTU tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7780971>

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy davlatning shakllanish tarixi, bugungi kunda barpo etilayotgan huquqiy davlatimizning tarixiy-ma'naviy asoslari, huquqiy davlatda inson huquqlarini himoya qilish mezonining muhim qadriyat ekanligi va ayni damda mamlakatimizda “adolatli va xalqparvar davlat barpo etish” g'oyasining asosiy tamoyillari xususida s o'z yuritiladi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitoblari, shuningdek, respublikamiz va xorij olimlarining mavzuga doir asarlari metodologik manba sifatida belgilandi.

Kalit so'zlar: Huquqiy davlat, huquqiy qadriyat, inson qadri, inson huquqlari, adolatli jamiyat, xalqparvar davlat.

Har qachon qadriyatlar haqida mulohaza qilganimizda o'zining mohiyati jihatidan sermazmun va ko'p qirrali tushunchani jamiyiyki insoniyat bilan uzviy bog'liq holda tushuntirishga harakat qilamiz. Agar insoniyat ongli mavjudot sifatida shakllanmaganida, o'z-o'zidan jamiyat ham undagi tizim ham vujudga kelmagan, hayot faqat ta'biyat qonunlariga asoslangan bo'lar edi. Avvalo inson tafakkur mahsuli sifatida ta'biyatga, ta'biyat qonunlariga moslashdi, uni ma'lum darajada o'zlashtirdi va o'zi uchun qadrl, yashashi uchun esa zarur bo'lgan muayyan qonuniyatlarni ishlab chiqishi na'tijasida jamiyatni, undagi umuminsoniy tamoyillarni vujudga keltirdi. Shu sababli ham qadr, qadriyat tushunchasining shakllanishi masalasi haqida gap ketkanda uni kishilik jamiyatining paydo bo'lishi davriga taqqoslaslaymiz. To'g'ri kishilik jamiyati shakllangan davrda falsafa, akseologiya terminlari ishlatilmagan, umuman hali biron bir fan, fan tarmog'i shakllanmagan, lekin voqelikdagi u yoki bu hodisalarga falsafiy tafakkur, qadriyatli dunyo qarash muayyan darajada shakllangan. Shu o'rinda qadriyatli dunyoqarash iborasiga alohida urg'u bersak, chunki bizning nazarimizda jamiyatning, davlatning vujudga kelishida ham aynan ushbu iboraning o'rni va ahamiyati katta.

Ta'kidlash joizki, o'tkan davr moboynida bir qator faylasuf olimlar tomonidan jamiyatning, davlatning paydo bo'lishi, undagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy munosabatlar haqida qator fikr-mulohazalar yuritilgan, ta'limotlar yaratilgan.

Platon, Aristotel, T.Gobbs, J.Russo kabi mutaffakirlarning asarlari buning yaqqol misolidir. Ingliz faylasufi T.Gobbs ta'biri bilan aytganda inson ijtimoiy jarayonga tushar ekan, endi uning o'zi o'z qadrini asrashi uchun muayyan huquqlarni yaratdi va bu huquqlar atrofida jamiyiyki insonlar birlashdi. Natijada ushbu huquqlarini ta'rtibga solib turuvchi yaxlit bir tizim davlat vujudga keladi.

Yunon faylasufi Aristotel esa o'zining “Politika” asarida davlatdagi nizolar va ularning sabablari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, davlatdagi har qanday barqarorlikni mustahkamlash uchun avvalo qonun ustuvorligini ta'minlash kerak, davlatning asosiy vazifalaridan biri esa bu adolatli qonunning ichlab chiqilishidir.[4]

Faylasuf o'zining bu fikri bilan qonunni davlatning ajralmas bo'g'ini, uning ta'rtib qoidalarining asosi sifatida e'tirof etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlashimiz za'rur, qonun ustuvorligi va adolatli qonunning yaratilishi deganda shu jamiyatda, davlatda yashayotgan insonlarning manfaatlarining himoya qilinishi, inson qadrining ulug'lanishi tushiniladi. Zero, bunday davlat huquqiy davlatning namunasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida "huquqiy davlat – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g'oyasi va buyuk kashfiyotidir" [1] deya ta'rif berishi bejiz emas, albatta.

Ma'lumki, milliy huquqiy merosimiz o'zining ko'p asrlik tarixiy ildizlariga ega bo'lib, xalqimizning millatimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Bu boylik qadimdan buyuk mutafakkirlarimiz, alloma-ajdodlarimizning asarlarida ham muhim g'oya sifatida o'z ifodasini topib eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan. Xususan, buyuk ajdodlarimizdan al - Buxoriy, al - Xorazmiy, al - Farg'oniy, at - Termiziy, Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, A.Yassaviy, hazrat Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqa mutafakkirlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etib, nafaqat bizning ba'lki jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo'shib, huquqiy davlat qurish va inson huquqlarini himoya qilishning tarixiy asoslari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarixdan ayonki, huquqiy davlat tushunchasiga ulug' sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron bobokalonimiz Amir Temur ham alohida e'tibor bilan qaragan.

Amir Temur o'z avlodlariga vasiyat va siyosiy dastur sifatida qoldirgan «Temur tuzuklari»da qonunning davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi va qonunning kuchiga yuksak baho berib, shunday deb yozadi: «...davlat agar, dinu oyin (qoida, rasm, tartib, odat, ravish) asosida qurilmas ekan, to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalong'och odamga o'xshaydikim, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi, yoxud kasu-nokas tab tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi»- deb yozadi. [5,57] Amir Temur o'zi aytgan ushbu fikrni faqat g'oya sifatida aytgan emas, balki uni bevosita amaliy hayotida, saltanatni boshqarishda qo'llagan, unga amal qilgan. Amir Temur o'z zamonasiga xos bo'lgan huquqiy davlatga asos solgan desak xato bo'lmaydi. Shu boisdan ham, huquqiy davlat qurish bizlarga tarixiy-ma'naviy meros desak to'g'ri bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'z kitobida "xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz" – deya alohida ta'kidlaganlar. [2,10] Ma'lumki, so'ngi yillarda respublikamizda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, munosib turmish-tarzini yaratish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori tobora mustahkamlanib bormoqda, har bir insonning huquq va erkinliklari kafolatlanib, qonun ustuvorligi ta'minlanmoqda.

Hozirgi O'zbekistonda qadriyatlar tizimi shakllanishida siyosiy-huquqiy islohotlarning o'rni beqiyos. Siyosiy-huquqiy islohotlarimizning zahirida "Adolatli va xalqparvar davlat barpo etish" g'oyasi turadi. Mazkur g'oyaning mohiyati quyidagi mezon va tamoyillarda o'z ifodasini topadi:

- qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarni, sohadagi kamchiliklarni, shuningdek, muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish, ularni bugungi kun talabiga mos ravishda takomillashtirish;

- qonun ustuvorligini taminlash maqsadida tizimli islohotlarni yanada jadallashtirish;
- qonunlarning qay darajada ishlayotganini o'rganishning eng muhim mezonlarini hayotga izchillik bilan tadbiiq etish, bu borada fuqarolar murojaatlarini inobatga olish va ularni tahlil qilish;
- xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish amaliyotini yanada takomillashtirish natijasida milliy qonunchilik normalari va mezonlarini dunyoning eng taraqqiy topgan davlatlari darajasiga ko'tarish;
- siyosiy-huquqiy islohotlarning samoradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilnayotgan hujjatlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash;
- haqiqat va adolat bahs va tortushuvlarda tug'iladi tamoyiliga tayangan holda, har bir soha bo'yicha qabul qilingan qarorlarda avvalo xalq, inson manfaatlarining ta'minlanishiga mustahkam zamin yaratish, bunda partiyalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga alohita e'tibor berish;
- sudyalari kengashi faoliyatining universal tamoyillarini ishlab chiqish;
- inson qadri uchun davlat inson uchun tamoyillarining hayotimizda amaliy tastig'ini topishida huquqiy bazaning yaratilishi;
- fuqarolar va jamoatchilik takliflari asosida huquqiy va qonunchilik bazasini tizimli takomillashtirib borish;
- yangi O'zbekistonda yangi milliy huquqiy tizimning shakllanayotgani va bu tizimda inson huquq va erkinliklarini, inson qadrini eng oliy qadriyat sifatida namoyon qiluvchi huquqiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi.

Demak, huquqiy davlatda inson qadri ulug'lanar ekan, uning manfaatlari ta'minlanar ekan, huquqning o'zini ham muayyan darajada qadriyat sifatida, qadriyatlar tizimining muhim bir sohasi sifatida e'tirof etishimiz mumkun.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda «O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir». [2,31]

Xususan, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining tashkil etilishi buning amaliy isboti va natijasidir. Ushbu Milliy markaz inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorligini, milliy ma'ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlovchi davlat organi hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan. <https://mjkoru.uz/uz/archives/3299>
2. Shavkat Mirziyoyev. «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз». Тошкент – «Ўзбекистон» - 2017.
3. Aristotel. Politika // Sochineniya v 4-x tomax. M., Misl, 1983. T.4. Perevod S. A. Jebeleva.
4. Temur tuzuklari.-T.. 1991.